

## SANOAT KORXONALARINI JOYLASHUVINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

**Kudratov Muhammad Rustamovich**

*Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat korxonalarini joylashtirishning mintaqaviy xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadi sanoat korxonalarini joylashuviga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tahliliy, statistik va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining joylashuvi tabiiy resurslar, transport infratuzilmasi, ishchi kuchi mavjudligi va bozor yaqinligi kabi omillarga bevosita bog'liq. Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoat siyosatini samarali amalga oshirish uchun kompleks yondashuvni qo'llash zarur.

**Kalit so'zlar:** *sanoat korxonalarini, mintaqaviy joylashuv, lokalizatsiya omillari, hududiy rivojlanish, sanoat klasterlari, mehnat resurslari, erkin iqtisodiy zonalar.*

## РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗМЕЩЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

**Кудратов Мухаммад Рустамович**

*Докторант, Бухарского государственного технического университета*

**Аннотация:** В данной статье теоретически и практически проанализированы региональные особенности размещения промышленных предприятий. Цель исследования заключается в выявлении факторов, влияющих на размещение промышленных предприятий, а также в разработке стратегий регионального развития. В ходе исследования были использованы аналитические, статистические и сравнительные методы. Полученные результаты показывают, что размещение промышленных предприятий напрямую зависит от таких факторов, как наличие природных ресурсов, транспортная инфраструктура, обеспеченность рабочей силой и близость к рынкам сбыта. В заключение отмечено, что для эффективной реализации региональной промышленной политики необходимо применение комплексного подхода.

**Ключевые слова:** *промышленные предприятия, региональное размещение, факторы локализации, территориальное развитие, промышленные кластеры, трудовые ресурсы, свободные экономические зоны.*

## REGIONAL FEATURES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES' LOCATION

**Kudratov Muhammad Rustamovich**

*Doctoral student, Bukhara state technical university*

**Abstract:** This article provides a theoretical and practical analysis of the regional features of industrial enterprises' location. The purpose of the study is to identify the factors influencing the placement of industrial enterprises and to develop strategies for regional development. Analytical, statistical, and comparative methods were used in the research. The results show that the location of industrial enterprises is directly dependent on factors such as the availability of natural resources, transport infrastructure, labor supply, and proximity to markets. In conclusion, it is emphasized that the effective implementation of regional industrial policy requires a comprehensive approach.

**Keywords:** *industrial enterprises, regional location, localization factors, territorial development, industrial clusters, labor resources, free economic zones.*

### KIRISH

Sanoat korxonalarini joylashtirish masalasi har qanday hududning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida hal qiluvchi omil bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tashkil etilishi, resurslar taqsimoti, transport-logistika imkoniyatlari hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqaviy sanoat joylashuvi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi, balki iqtisodiy o'sish darajasi, hududlararo tenglik, investitsion jozibadorlik va zamonaviy texnologiyalarni hududlarga taqsimlash jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>1</sup>da hududlarning tabiiy, iqtisodiy va transport-logistika salohiyatidan kelib chiqib sanoatni joylashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Unda har bir tuman va viloyatning ixtisoslashuvi, resurs potentsiali va infratuzilma imkoniyatlarini inobatga olgan holda "nuqtali rivojlanish modeli"ni joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"<sup>2</sup>da iqtisodiy o'sishning barqaror manbalaridan biri sifatida sanoatni hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish,

<sup>1</sup> [https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

yangi sanoat zonalarini tashkil etish, xalqaro transport yo‘laklari atrofida ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish, zamonaviy texnoparklar va logistika markazlarini yaratish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan. Strategiyada qayd etilishicha, hududlar kesimida sanoatning notekis joylashuvi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va hududlararo iqtisodiy integratsiyani sekinlashtiradi. Shu sababli, sanoatni joylashtirishning ilmiy asoslangan yondashuvlari ustuvor yo‘nalish qilib belgilangan. Jahon tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarining mintaqaviy joylashuvi ko‘proq resurs omillari, infratuzilma rivoji, bozor yaqinligi, mehnat resurslarining sifati, texnologik infratuzilma, davlatning investitsiya siyosati, shuningdek ekologik cheklovlar bilan belgilanadi. Masalan, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va Polsha kabi davlatlarda sanoatning makon bo‘yicha samarali joylashtirilishi iqtisodiy hududlar rivojlanishida kuchli drayver rolini o‘ynagan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda sanoatning hududiy rivojlanishida keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar (“Navoiy”, “Jizzax”, “Angren”), kichik sanoat zonalarini, klaster usuli, “drayver tumanlar” konsepsiyasi, mahalliyashtirish dasturlari sanoatning hududiy samaradorligini oshirdi. Xususan, har bir hududda sanoatni joylashtirishda ixtisoslashgan tarmoqlar shakllanmoqda:

- Farg‘ona vodiysida to‘qimachilik va neft-gaz kimyosi;
- Navoiy viloyatida kon-metallurgiya va kimyo;
- Jizzax va Sirdaryoda elektrotexnika;
- Buxoro va Qashqadaryoda gaz-kimyoy;
- Toshkentda mashinasozlik, farmatsevtika, IT sanoati.

Bu yondashuv hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va eksportni ko‘paytirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, sanoat korxonalarini joylashtirishning mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kunda iqtisodiy nazariya, regionalistika, klaster yondashuvi va hududiy boshqaruv fanlarining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy strategiyalariga mos holda ishlab chiqarish quvvatlarini optimal taqsimlash, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirish hamda milliy sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Sanoat korxonalarini joylashtirishning mintaqaviy xususiyatlari masalasi iqtisodiyot nazariyasida uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu sohada ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoatning hududiy tashkil

etilishi bozor mexanizmlari, resurs taqsimoti, iqtisodiy geografiya, klaster yondashuvi, transport-logistika tizimi va davlatning sanoat siyosati bilan uzviy bog‘liq. Sanoatni joylashtirish nazariyasining ilmiy poydevori klassik iqtisodchi A. Veberning (Weber, 1909) “Lage der Industrien” asarida yaratilgan bo‘lib, u transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari asosida optimal joylashuv modelini ishlab chiqqan. Uning fikricha, sanoat korxonalarini xarajatlarni minimal darajada ushlab turish imkonini beradigan hududlarda joylashishga intiladi [1]. V. Kristaller va A. Lösch tomonidan ishlab chiqilgan markaziy joylar nazariyasi mintaqaviy iqtisodiy tizimlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalarining qanday hududlarda shakllanishini matematik asosda izohlab bergan [2]. Ushbu nazariya bugungi kunda aglomeratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini tushunishda asosiy ilmiy manba sifatida qo‘llaniladi [3].

Zamonaviy regional sanoat yondashuvlari M. Porterning “Competitive Advantage of Nations” asarida keng yoritilgan bo‘lib, unda klaster modeli orqali sanoatning hududiy ixtisoslashuvi, raqobat muhiti va innovatsion salohiyatning hududiy rivojlanishga ta’siri ilmiy asoslangan. Porterning fikricha, klasterlar sanoat korxonalarini joylashtirishda asosiy drayverlardan biridir, chunki ular logistik xarajatlarni kamaytiradi, malakali ishchi kuchini jamlaydi va texnologik innovatsiyalarni tez tarqatadi [4]. Shuningdek, P. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan “Yangi iqtisodiy geografiya” nazariyasi sanoatning hududiy joylashuvini bozor o‘lchami, transport xarajatlari, miqyos samarasi va aglomeratsiya omillariga bog‘lab, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni ilmiy asosda izohlab bergan. Krugman modeli sanoat korxonalarining ko‘p hollarda yirik markazlarda yaqinlashib joylashish tendensiyasini tushuntiradi [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda UNIDO, OECD, World Bank, UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlar sanoat joylashuvi bo‘yicha keng ko‘lamli tahlillar olib boradi [6]. Xususan, UNIDOning “Industrial Development Report” hisobotida sanoatning hududiy diversifikatsiyasi, innovatsion zonalar, texnoparklar va sanoat klasterlarining global iqtisodiyotdagi o‘rni yoritilgan [7].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham sanoatni hududiy rivojlantirish va korxonalarini optimal joylashtirish masalalariga oid qator ilmiy izlanishlar olib brogan [8]. K. Shodmonov, N. Toshmatov, B. Xodiev, S. Abdullaev, O. Abdullaeva, G. Pardaev, R. Sultonov kabi olimlarning asarlarida sanoatning mintaqaviy rivojlanishi, resurs potentsiali, hududlararo iqtisodiy integratsiya va ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilish tamoyillari chuqur o‘rganilgan [9]. K. Shodmonovning iqtisodiy regionalistika bo‘yicha ishlarida O‘zbekistonning har bir viloyatining iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurslardan foydalanish samaradorligi va sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar keltirilgan [10].

B. Xodiev esa sanoat korxonalarini joylashtirishda investitsion muhit, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi va energetika ta’minotining ahamiyatini ta’kidlaydi [11]. Sanoat klasterlari bo‘yicha mahalliy olimlardan G. Pardaevning ilmiy ishlari

muhim o‘rin tutadi. Uning tadqiqotlarida to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo va qishloq xo‘jaligi klasterlarining hududiy rivojlanishdagi o‘rni, eksport salohiyati va yangi ish o‘rinlari yaratish mexanizmlari ilmiy asoslarda yoritilgan [12].

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarini joylashtirish masalasi ko‘p faktorli, kompleks va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalishdir. Xorijiy olimlar bu mavzuni ko‘proq nazariy modellar, klaster konsepsiyalari va iqtisodiy geografiya orqali tahlil qilgan bo‘lsa, mahalliy tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitida sanoatning mintaqaviy rivojlanishi, ixtisoslashuv, infratuzilma, investitsiya muhitini o‘rganishga qaratilgan. Prezident asarlari esa ushbu tadqiqotlarga amaliy siyosiy yo‘nalish berib, ishlab chiqarish kuchlarini ilmiy asosda hududlar bo‘yicha joylashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarini joylashtirishning mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tizimli tahlil metodi orqali hududlarning iqtisodiy salohiyati, resurslari, infratuzilmasi va ishlab chiqarish kuchlarining o‘zaro bog‘liqligi kompleks o‘rganildi. Solishtirma tahlil yordamida O‘zbekiston hududlaridagi sanoat joylashuvi Janubiy Koreya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar tajribasi bilan taqqoslanib, mintaqaviy farqlar va o‘xshashliklar aniqlab berildi.

Tadqiqotda statistik tahlil muhim o‘rin tutib, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiya hajmi, eksport salohiyati, bandlik ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi. Geografik va kartografik tahlil sanoat tarmoqlarining hududiy taqsimotini vizual baholash hamda resurslar, transport yo‘llari va logistika imkoniyatlari bilan bog‘liqligini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Shuningdek, iqtisodiy-geografik modellashtirish orqali Weber, Porter va Krugman yondashuvlari asosida sanoatni optimal joylashtirish omillari baholandi. Bundan tashqari, ekspert baholash metodi orqali soha mutaxassislarining fikrlari yig‘ilib, hududlarning sanoat salohiyati yuzasidan sifatli baholar shakllantirildi. SWOT-tahlil esa har bir hududning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari va xavf xatarlarini aniqlab, sanoatni joylashtirishning strategik yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qildi. Yakunda, Prezident farmonlari, “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” va xalqaro tashkilotlar (UNIDO, OECD) hisobotlari hujjatlar tahlili metodi orqali o‘rganilib, tadqiqotning ilmiy-amaliy asoslari mustahkamlandi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sanoat korxonalarini hududiy joylashtirish iqtisodiy geografiya va regional rivojlanish siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, eksport imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Hududlar bo‘yicha sanoat tarmoqlarining oqilona taqsimlanishi nafaqat

ishlab chiqarish xarajatlari va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, balki mintaqalarning ixtisoslashuvini kuchaytiradi, transport va logistika zanjirlarini optimallashtiradi hamda mahalliy mehnat resurslarining bandligini kengaytiradi. Sanoat korxonalarini joylashtirishda birinchi navbatda tabiiy resurslar omili muhim o‘rin tutadi. Masalan, O‘zbekistonning neft va gaz konlari Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida joylashgani sababli ushbu hududlarda gaz-kimyoo sanoati, yoqilg‘i-energetika majmualari va polimer ishlab chiqarish klasterlari rivojlangan. Sho‘rtangazkimyoo majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi yoki Buxoro neftni qayta ishlash zavodi kabi korxonalar resurslarga yaqin joylashuv tufayli transport xarajatlarini kamaytiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlaydi.

Ikkinchi muhim omil — mehnat resurslari zichligi va malakasi. Farg‘ona vodiysi aholisi mamlakatdagi eng zich hudud bo‘lgani uchun yengil sanoat, oziq-ovqat, to‘qimachilik va hunarmandchilikka yo‘naltirilgan korxonalar aynan shu mintaqada keng joylashgan. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida ishchi kuchi yetarli bo‘lgani sababli mehnat talab qiladigan tarmoqlar samarali faoliyat yurita oladi. Bunga Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, Namangan to‘qimachilik fabrikalari yoki Andijon avtomobilsozlik tarmoqlarining ishlab chiqarish zanjiri misol bo‘la oladi.

Transport-logistika infratuzilmasi ham sanoat joylashuvi uchun hal qiluvchi omildir. Toshkent viloyati sanoatning “markaziy uzeli”ga aylanganining asosiy sababi uning yirik transport yo‘llari, xalqaro aeroport, temir yo‘l tarmoqlari va iste‘mol bozoriga yaqinligidir. Angren-Ohangaron sanoat zonasi, Bektemir sanoat uzeli, Chirchiq kimyoo kombinati kabi yirik loyihalar aynan transport qulayligi sababli ushbu hududga joylashtirilgan. Angren–Pop temir yo‘l magistralining ishga tushirilishi esa Farg‘ona vodiysi bilan markaz orasidagi logistik aloqalarni yanada mustahkamladi va yangi korxonalar joylashuvini jadallashtirdi. Yana bir muhim jihat — hududlarning ixtisoslashuvi va klasterlashuv jarayonlari. O‘zbekiston so‘nggi yillarda klaster modeliga o‘tayotgani sababli sanoat joylashuvi hududlar bo‘yicha chuqur differensiallashmoqda. Masalan, Navoiy viloyati kimyoo va metallurgiya sanoati bo‘yicha yetakchiga aylanib bormoqda. Respublikadagi eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” faoliyati ushbu hududda butun sanoat ekotizimini shakllantirgan. Ayni paytda Toshkent viloyatida elektrotexnika klasteri, Buxoroda gaz-kimyoo klasteri, Samarqandda ipakchilik va turizm bilan bog‘liq ishlab chiqarish zanjirlari rivojlanmoqda.

Davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik dasturlar ham sanoatning mintaqaviy joylashuviga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, “Hududlarni kompleks rivojlantirish” dasturi, “Industrializatsiya – 2 bosqich” tashabbuslari, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini kengaytirish bo‘yicha Prezident qarorlari hududlarda yangi ishlab chiqarish kuchlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Angren, Jizzax va Navoiy erkin iqtisodiy zonalarida yuzlab yangi

investitsion loyihalar amalga oshirilib, chet el investorlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu esa sanoat korxonalarining joylashuv geografiyasini kengaytirdi. Sanoat joylashuvining mintaqaviy xususiyatlarida agglomeratsiya effektlari alohida ahamiyatga ega. Toshkent–Angren–Ohangaron uchligi, Navoiy sanoat hududi yoki Farg‘ona vodiysi klasterlari bir-biriga yaqin joylashgan sanoat subyektlari o‘rtasida hamkorlik va kooperatsiya kuchayishiga olib kelmoqda. Bu jarayon ayniqsa mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarida yaqqol seziladi. Yirik hududiy klasterlar texnologiya almashinuvi, malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan integratsiya va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarining joylashuvi bo‘yicha ayrim muammolar ham mavjud. Mamlakatda sanoatning katta qismi Toshkent shahri va viloyati hamda Farg‘ona vodiysida to‘plangan tufayli hududlar o‘rtasida iqtisodiy nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida sanoat mahal yetarli darajada rivojlanmagan. Aholi zichligi past, kadrlar malakasi yetarli bo‘lmagan hududlarda sanoat korxonalarini barqaror faoliyatga yo‘naltirish qiyin bo‘lib qolmoqda. Transport xarajatlarini kamaytirish, energetik infratuzilmani modernizatsiya qilish, mehnat bozorini rivojlantirish kabi vazifalar dolzarbligicha qolmoqda. Kelgusi yillarda O‘zbekiston sanoati hududiy jihatdan yanada diversifikatsiya qilinishi kutilmoqda. Qoraqalpog‘iston va Surxondaryoda “yashil energetika” korxonalari, Samarqand va Jizzaxda eksportga yo‘naltirilgan mevasabzavotni qayta ishlash klasterlari, Buxoroda gaz-kimyo majmualarining kengayishi, Farg‘ona vodiysida yengil sanoatning chuqur qayta ishlash bosqichiga o‘tishi mintaqaviy iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqadi. Sanoat korxonalarining istiqbolli joylashtirilishi hududlarning iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlaydi. Mintaqaviy xususiyatlarni to‘g‘ri hisobga olgan holda olib borilayotgan industrial siyosat O‘zbekistonning raqobatbardosh iqtisodiyot sari intilishida asosiy drayverlardan biri bo‘lib qoladi.

Tadqiqot natijalari asosida sanoat korxonalarini joylashtirishga ta‘sir etuvchi omillarning kompleks tasnifi ishlab chiqilgan.

### 1-jadval

#### Sanoat korxonalarini joylashtirishga ta‘sir etuvchi omillar tasnifi

Omillar guruhi	Tarkibiy elementlar	Ta‘sir darajasi	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Tabiiy omillar	Xom ashyo resurslari	Yuqori	Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro
	Energiya manbalari	Yuqori	Qashqadaryo, Surxondaryo
	Suv resurslari	O‘rtacha	Farg‘ona vodiysi, Toshkent
	Iqlim sharoitlari	Past	Barcha mintaqalar
Iqtisodiy omillar	Transport infratuzilmasi	Yuqori	Toshkent, magistral yo‘llari

	Bozor yaqinligi	Yuqori	Toshkent, yirik shaharlar
	Ishchi kuchi mavjudligi	Yuqori	Farg‘ona vodiysi
	Ishchi kuchi narxi	O‘rtacha	Chekkadagi viloyatlar
	Investitsiya muhiti	Yuqori	EIZ, sanoat parklari
Ijtimoiy omillar	Aholi zichligi	O‘rtacha	Farg‘ona vodiysi, Toshkent
	Urbanizatsiya darajasi	O‘rtacha	Yirik shaharlar
	Kadrlar tayyorlash tizimi	Yuqori	Toshkent, viloyat markazlari
	Madaniy an‘analar	Past	Samarqand, Buxoro, Xorazm
Institutsional omillar	Davlat siyosati	Yuqori	Barcha mintaqalar
	Soliq imtiyozlari	Yuqori	EIZ, sanoat parklari
	Normativ-huquqiy baza	O‘rtacha	Barcha mintaqalar
	Mahalliy hokimiyat faolligi	O‘rtacha	Viloyatlar bo‘yicha farqlanadi

*Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Jadvalda ko‘rsatilganidek, xom ashyo resurslari, energiya manbalari va suv ta‘minoti sanoat joylashuvini belgilovchi eng kuchli omillar qatoriga kiradi. Resurslarga boy hududlarda (Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo) og‘ir sanoat, metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlarining shakllanishi mintaqaviy sanoat tuzilmasining asosi hisoblanadi. Aksincha, tabiiy resurslari kam bo‘lgan hududlarda sanoatning mehnat talab qiladigan, ko‘proq qayta ishlashga yo‘naltirilgan tarmoqlari rivojlanishi kuzatiladi. Bu, sanoatning hududlar bo‘yicha differensial joylashuvini kuchaytiradi va iqtisodiy ixtisoslashuvni shakllantiradi. Transport infratuzilmasi, bozor yaqinligi va hududning investitsion jozibadorligi O‘zbekiston sanoat xaritasini shakllantiruvchi muhim omillardir. Yirik yo‘llar, temir yo‘l tugunlari va logistika markazlari joylashgan hududlar (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona vodiysi) iqtisodiy faollikning markaziga aylangan.

Ushbu hududlarda sanoatning ko‘p funksiyali, diversifikatsiyalashgan klasterlari shakllanmoqda. Bozor yaqinligi yuqori bo‘lgan shaharlarda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar ustun bo‘ladi, chekka hududlarda esa xom ashyoga yaqin sanoat ustunlik qiladi. Bu esa sanoat joylashuvida iqtisodiy hududlarning teng rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

Nufus zichligi, urbanizatsiya darajasi, malakali ishchi kuchi mavjudligi va migratsiya oqimi sanoatning joylashuviga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Aholisi ko‘p hududlarda (Farg‘ona vodiysi, Toshkent viloyati) mehnat talab qiladigan tarmoqlar keng rivojlanadi. Malakali kadrlar yetishli bo‘lgan shaharlarda (Toshkent, Samarqand) ilmiy texnologik tarmoqlar, mashinasozlik, elektrotexnika sanoati kuchli rivojlanmoqda. Bu jarayon ijtimoiy resurslar va sanoat rivoji o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon qiladi. Kadrlar yetishmaydigan chekka hududlarda esa sanoatning keng ko‘lamda rivojlanishi uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish zarur.

Davlat siyosati, investitsiya imtiyozlari, soliq yengilliklari va mahalliy boshqaruv faoliyati sanoat joylashuvini tartibga soluvchi eng muhim zamonaviy

omillar qatoriga kiradi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), kichik sanoat zonolari va maxsus iqtisodiy hududlarda yuqori soliq imtiyozlari berilishi korxonalar oqimini ma'lum hududlarga yo'naltirmoqda. Masalan, Navoiy, Angren, Jizzax EIZlarining rivojlanishi sanoatning hududiy ko'chishiga yangi impuls berdi. Bu omillar sanoatni strategik yo'nalishlar bo'yicha boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish imkonini yaratmoqda.

Jadvalda keltirilgan omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi murakkab, ko'p omilli va mintaqaviy farqlarga ega jarayondir. Tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar birgalikda ta'sir ko'rsatib, har bir hududning o'ziga xos sanoat profili va ixtisoslashuvini shakllantirmoqda. Resurslarga boy hududlarda xom ashyo sanoati rivojlangan bo'lsa, demografik jihatdan zich hududlarda qayta ishlash va iste'molga yo'naltirilgan tarmoqlar ustunlik qiladi. Davlat siyosatining kuchayishi esa sanoat joylashuvini maqsadli boshqarish imkonini bermoqda. Bularning barchasi O'zbekiston sanoatining hududiy rivojlanishida yangi bosqichni shakllantirmoqda. Statistik ma'lumotlar tahlili O'zbekiston mintaqalarida sanoat korxonalarining notekis taqsimlanganligini ko'rsatdi.

## 2-jadval

### O'zbekiston mintaqalarida sanoat ishlab chiqarishi (2024-yil ma'lumotlari)

Mintaqa	Sanoat ishlab chiqarishi (trln. so'm)	Ulushi (%)	Sanoat korxonalarini soni	Sanoatda bandlar (ming kishi)	Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (mln. so'm)
Toshkent shahri	98,4	23,5	4 850	312	34,2
Toshkent viloyati	63,7	15,2	3 420	245	22,1
Navoiy	58,3	13,9	1 280	156	56,8
Qashqadaryo	42,6	10,2	1 890	178	13,2
Farg'ona	35,8	8,5	2 650	198	9,8
Andijon	28,4	6,8	2 180	165	8,9
Samarqand	24,6	5,9	2 340	142	6,5
Buxoro	18,9	4,5	1 420	98	9,8
Namangan	16,2	3,9	1 780	112	5,8
Surxondaryo	12,4	3,0	980	78	4,8
Jizzax	8,6	2,1	720	56	6,4
Sirdaryo	5,8	1,4	540	42	7,0
Xorazm	4,2	1,0	680	45	2,3
Qoraqalpog'iston	1,8	0,4	420	28	0,9
Jami	419,7	100	25 150	1 855	12,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Jadval ma'lumotlari tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, Toshkent shahri va viloyati birgalikda mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarishining 38,7 foizini ta'minlaydi. Bu yuqori konsentratsiya poytaxt mintaqasining rivojlangan infratuzilmasi, malakali kadrlar mavjudligi va katta iste'mol bozori bilan izohlanadi. Ikkinchidan, Navoiy viloyati aholi jon boshiga sanoat mahsuloti bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi (56,8 mln. so'm). Bu ko'rsatkich respublika o'rtachasidan 4,7 baravar yuqori bo'lib, viloyatdagi tog'-kon va metallurgiya sanoatining yuqori qo'shimcha qiymat yaratishi bilan bog'liq. Uchinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida sanoat salohiyati eng past darajada. Bu hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti respublika o'rtachasidan 5-13 baravar kam.

Mintaqaviy sanoat salohiyati indeksi (MSSI) tahlili. Ishlab chiqilgan metodika asosida mintaqalarning sanoat salohiyati indeksi hisoblangan.

### 3-jadval

#### O'zbekiston mintaqalarining sanoat salohiyati reytingi (MSSI)

O'rin	Mintaqa	MSSI	Salohiyat darajasi	Asosiy sanoat tarmoqlari
1	Toshkent shahri	0,89	Juda yuqori	Mashinasozlik, elektrotexnika, oziq-ovqat
2	Navoiy	0,76	Yuqori	Tog'-kon, metallurgiya, kimyo
3	Toshkent viloyati	0,72	Yuqori	Avtomobilsozlik, qurilish materiallari
4	Qashqadaryo	0,58	O'rtacha-yuqori	Neft-gaz, kimyo sanoati
5	Farg'ona	0,52	O'rtacha	To'qimachilik, neft qayta ishlash
6	Andijon	0,48	O'rtacha	Avtomobilsozlik, yengil sanoat
7	Buxoro	0,41	O'rtacha	Neft-gaz, to'qimachilik
8	Samarqand	0,38	O'rtacha-past	Oziq-ovqat, to'qimachilik
9	Namangan	0,32	O'rtacha-past	Yengil sanoat, oziq-ovqat
10	Surxondaryo	0,28	Past	Kimyo, qurilish materiallari
11	Jizzax	0,24	Past	Oziq-ovqat, qurilish materiallari
12	Sirdaryo	0,21	Past	Oziq-ovqat, yengil sanoat
13	Xorazm	0,18	Juda past	Oziq-ovqat, hunarmandchilik
14	Qoraqalpog'iston	0,12	Juda past	Oziq-ovqat, yengil sanoat

*Manba: Muallif tomonidan hisoblangan*

MSSI tahlili mintaqalarni to'rt guruhga ajratish imkonini berdi. Yetakchi mintaqalar (MSSI > 0,70): Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent viloyati. Bu mintaqalar yuqori sanoat salohiyatiga, rivojlangan infratuzilmaga va diversifikatsiyalangan sanoat tarkibiga ega. Rivojlanayotgan mintaqalar (MSSI 0,40-0,70): Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon, Buxoro. Bu viloyatlar muayyan sanoat tarmoqlarida ixtisoslashgan va o'sish salohiyatiga ega. O'rtacha rivojlangan mintaqalar (MSSI 0,20-0,40): Samarqand, Namangan, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo. Bu hududlarda sanoat tarkibi yetarli

diversifikatsiyalanmagan va qo‘shimcha investitsiyalar talab qilinadi. Kam rivojlangan mintaqalar (MSSI < 0,20): Xorazm, Qoraqalpog‘iston. Bu hududlar sanoat rivojlanishi bo‘yicha alohida e‘tibor va davlat qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchi, sanoat korxonalarini joylashtirishning mintaqaviy xususiyatlari murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Korxonalarining joylashuviga tabiiy (xom ashyo, energiya, suv resurslari), iqtisodiy (transport, bozor, ishchi kuchi), ijtimoiy (aholi zichligi, kadrlar) va institutsional (davlat siyosati, imtiyozlar) omillar majmui ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi, O‘zbekistonda sanoat korxonalarining hududiy taqsimlanishi sezilarli darajada notekis. Toshkent mintaqasi mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarishining 38,7 foizini ta‘minlaydi, Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatlarining ulushi esa 1,4 foizni tashkil etadi. Bu nomutanosiblik mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish farqlarini keltirib chiqarmoqda.

Uchinchi, ishlab chiqilgan Mintaqaviy sanoat salohiyati indeksi (MSSI) mintaqalarni to‘rt guruhga tasniflash imkonini berdi: yetakchi mintaqalar (MSSI > 0,70), rivojlanayotgan mintaqalar (MSSI 0,40-0,70), o‘rtacha rivojlangan mintaqalar (MSSI 0,20-0,40) va kam rivojlangan mintaqalar (MSSI < 0,20). Bu tasnif differensiyalashgan mintaqaviy sanoat siyosatini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi, sanoat klasterlarini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va raqobatbardoshlikni oshirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Avtomobilsozlik va to‘qimachilik klasterlari muvaffaqiyatli rivojlanayotgan bo‘lsa, farmatsevtika, elektrotexnika va IT-sanoat klasterlari shakllanish bosqichida.

Beshinchi, mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish uchun har bir hududning raqobatbardosh ustunliklariga asoslangan differensial yondashuvni qo‘llash zarur. Yetakchi mintaqalar uchun innovatsion rivojlanish, rivojlanayotgan mintaqalar uchun intensiv o‘shish, kam rivojlangan mintaqalar uchun esa bazaviy rivojlanish strategiyalari tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Weber, A. (1909). *The theory of the location of industries*. University of Chicago Press.
2. Christaller, W. (1933). *Central places in Southern Germany*. Prentice Hall.
3. Lösch, A. (1940). *The economics of location*. Yale University Press.
4. Porter, M. E. (1990). *The competitive advantage of nations*. Free Press.
5. Krugman, P. (1991). *Geography and trade*. MIT Press.

6. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2023). *Industrial development report 2023: Global industrialization trends*. Vienna: UNIDO.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2022). *Regional industrial development: Policies and practices*. OECD Publishing.
8. World Bank. (2024). *Uzbekistan economic update: Industrial transformation and regional development*. Washington, DC: World Bank Group.
9. Shodmonov, Q., & Toshmatov, N. (2020). *Regional economics and industrial location principles in Uzbekistan*. Tashkent: Iqtisodiyot Publishing.
10. Pardaev, G. (2021). *Industrial clusters and regional competitiveness in Uzbekistan*. Samarkand State University Press.
11. Abdullaev, S., & Sulstonov, R. (2019). *Transport infrastructure and industrial location in Uzbekistan*. Bukhara Engineering University Press.
12. President of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Uzbekistan-2030 strategy*. Tashkent: Official Publication of the President of Uzbekistan.